



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING RIVOJLANISH SOHALARI BO'YICHA MONITORING OLIB BORISH TEXNOLOGIYALARI

Shohobiddinova Irodaxon Yunusxon qizi¹

¹ Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5813734>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-Dekabr 2021

Ma'qullandi: 25-Dekabr 2021

Chop etildi: 30-Dekabr 2021

KALIT SO'ZLAR

ta'lim-tarbiya, yirik
motorika, mayda
motorika, sensor
motorika, ijtimoiy-hissiy
rivojlanish, o'yin, faoliyat

ANNOTATSIYA

ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirish, tarbiyalanuvchilarni rivojlanish sohalari bo'yicha monitoringini olib borish xususida so'z yuritilgan.

O'zbekiston Respublikasi prezidentining "2017 — 2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarorida maktabgacha ta'lim sohasida " ...ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish; maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-arbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish" vazifasi belgilab berildi. Bu vazifalarni ibajarish uchun oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan mutaxassislarni xorijiy davlatlarning

maktabgacha ta'lim tizimi bilan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risi"dagi qonuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-27.07 sonli qarori. Vazirlar mahkamasining 21-noyabrda 929-son buyrug'i O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim Vazirligi to'g'risidagi nizomni hamda maktabgacha ta'lim tashkilotining rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqidagi qaroriga asosan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish ta'lim tarbiya berish, maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha davlat talablari belgilandi.



Maktabgacha ta'lim jarayonining maqsadi, o'quv tarbiyaviy jarayonining maqsadi, bolaning rivojlanish sohalari bo'yicha yutuqlari.

Bolaning rivojlanish xaritasini to'ldirish uchun 3-sikldan iborat bo'lgan kuzatuv olib boriladi; dastlabki, oraliq, yakuniy.

Dastlabki kuzatuv o'quv boshida o'tkaziladi taxminan sentyabr oylarida to'g'ri keladi. Bu bosqichda har bir bolaning boshlang'ich imkoniyatlari aniqlanadi, uning shu davrgacha erishgan yutuqlari belgilanadi. Tarbiyachi ta'lim sohalari, o'zlashtirish bo'yicha mavjud bo'lgan muammolarga ham etibor qaratadi. Bolaning qanday sifatlarini qo'llab quvvatlashni, har bir bola uchun qanday vazifalar dolzarbligini aniqlab boriladi. Bolaning ayni davrdagi yoshini xisobga olgan holda uning rivojlanish sohalari bo'yicha yutuqlari xaritasi to'ldiriladi.

Oraliq kuzatuv 1-yarim yillikda dekabr yanvar oylariga to'g'ri keladi. Bu monitoringni o'tkazishdan maqsad bolaga nisbatan tanlangan metodikani to'g'riligini aniqligini rivojlanish sohasiga mos kelishini rivojlanish sohasini to'g'ri belgilab olishdan iborat. Mazkur kuzatuv natijalariga ko'rako'ra tarbiyachi boshqa mutahassislar bilan hamkorlikda zarurat tug'ilgan holatlarda pedagogik jarayonga tuzatishlar kiritishi mumkin.

Yakuniy kuzatuv o'quv yili ohirida may oyida tarbiyachi o'tkazadi. Mazkur kuzatuv asosida yil boshidan qo'yilgan vazifalar qanday amalga oshirilgani natijalari baholanadi, bola rivojida kutilayotgan yangi natijalar hisobga olingan holda keyingi pedagogik jarayondan ko'zda tutilgan maqsadlar belgilanadi.

Kuzatuv o'tkazishda quyidagi tamoyillarga tayanish lozim

Tarbiyachi bola to'g'risidagi ma'lumotlarni ota-onalari yoki tashkilotning boshqa hodimlaridan suhbatlar jarayonida bilib olishi mumkin. Tarbiyachi bolaning moyilliklari qiziqishlarini o'rganib chiqadi, muloqot qilish uchun kuzatuvni kamida 2-hafta yoki oy davomida olib boradi. O'quv yili ohirida tarbiyachi yakuniy pedagogik kengashda bolalarning o'quv dasturi o'zlashtirilishi sifat darajasi to'g'risida hisobot yozadi va unda bolalar tomonidan tegishli natijalar erishilgani haqida ma'lumotlar beradi. Bajarilmagan bandlar haqida ularning sabablari haqida to'htalib o'tadi. Pedagog tarbiyachi bola yutuqlari xaritasini yiliga kamida 3-marta to'ldiriladi va erishilgan natijani tegishli belgi bilan belgilanadi. Kuzatuv rivojlanishining barcha sohalari bo'yicha olib boriladi. Xaftalik reja barcha rivojlanish sohalari bo'yicha maqsadlarni belgilash tegishli markazlarini tayyorlash mashg'ulotlarga hafta mavzusiga mos ravishda taqsimlanadi yo'naltirilgan hafta mavzusi barcha erkin faoliyat markazlari orqali o'tishi lozim. Xaftalik rejada guruhdagi va sayr vaqtidagi didaktik va harakatli o'yinlar rejalashtiriladi. Bolalar bilan olib boriladigan ishning mazmuni va izchilligi faolligi faoliyat turi faol faoliyat passiv faoliyat individual faoliyat hisobga olgan holda rejalashtiriladi. O'tkaziladigon tashxis diagnostika asosida pedagog tarbiyachi, psiholog, logoped, jismoniy tarbiya bo'yicha yo'riqchi va boshqalar bilan hamkorlikda bolaning yutuqlarini ajratadi. Olingan natijalar mos ravishda ta'lim jarayoniga tuzatishlar kiritiladi individual ish rejalashtiriladi va uni amalga oshirish borasidagi vazifalar belgilanadi. O'quv yili ohirida may oyida ushbu xarita bo'yicha yakuniy kuzatuv o'tkaziladi.



Xulosa qilib aytganda bolalarning rivojlanish sohalari bo'yicha tarbiyachi, ota ona, logoped psihologlarning o'rni nihoyatda 795ata ahamiyatga ega va

bolalarning o'zlarining harakati bilan yahshi natijalarga erishish mumkinligini bilishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi Qonuni. 2019 yil 16 dekabr
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2707-son qarori
3. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standarti. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020 yil 22-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standartini tasdiqlash to'g'risida" gi 802-son Qarori.
4. Boboyorova G. Bolalarni maktabga tayyorlashda interfaol usullardan foydalanish. Maktabgacha ta'lim jurnali. 2007. 6-son. 14-bet.
5. Sodiqova SH. Tarbiyachilarni maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni ijtimoiylashtirishdagi roli. Xalq ta'limi jurnali. 2008. 5-son, 119-123 bet.